# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 2-son

VOLUME 8 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS

Crossref Content Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.
Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

**Muharrirlar:**
Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva

**Musahhih:**
S. Rasulova

**Texnik muharrir:**
U. Sapayev

**Dizayner:**
D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**
100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz
**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz
**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 24.06.2024-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 18,6 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 87.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

**BOSH MUHARRIR**
*I. Rustambekov* – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI**
*B. Xodjayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

**MAS'UL MUHARRIR**
*O. Choriyev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI**
*A. Saidov* – Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

*E. Juchniewicz* – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

*A. Younas* – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

*O. Okyulov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*J. Nematov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*Sh. Asadov* – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*M. Aminjonova* – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*M. Rahimov* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*O. Narzullayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*B. Murodov* – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*A. Muxamedjanov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*N. Niyazova* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.
Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.
Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

**Редакторы:**
Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева

**Корректор:**
С. Расулова

**Технический редактор:**
У. Сапаев

**Дизайнер:**
Д. Ражапов

**Адрес редакции:**
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Веб-сайт:** review.tsul.uz
**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz
**Подписной индекс:** 1385.

Журнал передан в типографию 24.06.2024.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 18,6. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 87.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

**© Ташкентский государственный юридический университет**

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**
*И. Рустамбеков* – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

**ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА**
*В. Ходжаев* – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР**
*О. Чориев* – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

**ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ**
*А. Саидов* – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*Э. Юхневич* – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

*А. Юнас* – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

*О. Окюлов* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Ж. Нематов* – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Ш. Асадов* – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*М. Аминжонова* – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*М. Рахимов* – доктор юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*О. Нарзуллаев* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*В. Муродов* – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*А. Мухамеджанов* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Н. Ниязова* – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.
The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

**Editors:**
Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva

**Proofreader:**
S. Rasulova

**Technical editor:**
U. Sapaev

**Designer:**
D. Rajapov

**Publishing department addess:**
100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

**Website:** review.tsul.uz
**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz
**Subscription index:** 1385.

The journal is submitted to the printing house on 24.06.2024.
Paper size: A4.
Cond. p.p.18,6. Unit: 100.
Order: 87.
Published in printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

**CHIEF EDITOR**
*I. Rustambekov* – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**DEPUTY EDITOR**
*B. Xodjaev* – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**EXECUTIVE EDITOR**
*O. Choriev* – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

**EDITORIAL BOARD MEMBERS**
*A. Saidov* – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

*E. Juchniewicz* – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

*A. Younas* – Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Beijing, China)

*O. Okyulov* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*J. Nematov* – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*Sh. Asadov* – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*M. Aminjonova* – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*M. Rakhimov* – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) (Tashkent, Uzbekistan)

*O. Narzullaev* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*B. Murodov* – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*A. Muxamedjanov* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*N. Niyazova* – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

# MUNDARIJA

## 12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA’LIMOTLAR TARIXI

8 **TULTEYEV ILYAS TAVASOVICH**
O‘zbekistonda strategik rejalashtirishni huquqiy ta’minlash masalasi

## 12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

19 **NORMATOV BEKZOD AKRAM O‘G‘LI**
O‘zbekistonda soliq tekshiruvlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari

32 **ISTAMOV MAXMUD SHUXRATOVICH**
Saylov jarayoni ishtirokchisi sifatida siyosiy partiyalar: milliy qonunchilik va uni takomillashtirish

43 **MUSTANOV ILXOM ABDIVALIJONOVICH**
Banklar faoliyatini nazorat qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari: qiyosiy-huquqiy tahlil

## 12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

62 **GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH, RUSTAMBEKOV ISLOMBEK RUSTAMBEKOVICH**
Raqamli aktivlarni himoya qilish: O‘zbekiston kriptobirjalari ekotizimi uchun kiber xavfsizlik imperativlari

73 **MAHMUDXODJAYEVA UMIDA MUMINOVNA**
Ota-onalik huquqidan mahrum etish asoslari va oqibatlari: nazariya va amaliyot

87 **EGAMBERDIYEV EDUARD XAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Raqamli obyektlarni vasiyat qilish: meros qoldiruvchining so‘nggi istagini amalga oshirish muammolari

## 12.00.07 – SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

97 **OTAJONOV ABRORJON ANVAROVICH**
Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar uchun javobgarlik choralarini takomillashtirish

113 **XUDAYKULOV FERUZBEK XURRAMOVICH**
Jinoyat huquqida harakatsizlik va uning turlari: tahlil va taklif

125 **ABDUXAKIMOV MURODULLO TOG‘AYEVICH**
Xorijiy mamlakatlarda yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan prokuror nazorati ahvoli

137 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**
Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida yuridik shaxslarga nisbatan jazoni yengillashtirish masalalari

## 13.00.02 – TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO‘YICHA)

147 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
Yuridik terminologiyada sinonimiya va polisemiya

155 **KARAXODJAYEVA DILOROM MAMIROVNA**
Ruzinazarov Shuhrat Nuraliyevich – taniqli olim, O‘zbekiston zamonaviy fuqarolik huquqi maktabi vakili

# СОДЕРЖАНИЕ


## 12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**
К вопросу о правовом обеспечении стратегического планирования в Узбекистане

## 12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

19 **НОРМАТОВ БЕКЗОД АКРАМ УГЛИ**
Вопросы совершенствования правового регулирования налоговых проверок в Узбекистане

32 **ИСТАМОВ МАХМУД ШУХРАТОВИЧ**
Политические партии как участники избирательного процесса: национальное законодательство и его совершенствование

43 **МУСТАНОВ ИЛЬХОМ АБДИВАЛИЖОНОВИЧ**
Организационно-правовые механизмы контроля банковской деятельности: сравнительно-правовой анализ

## 12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

62 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ, РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК РУСТАМБЕКОВИЧ**
Защита цифровых активов: императивы кибербезопасности для экосистемы криптобирж Узбекистана

73 **МАХМУДХОДЖАЕВА УМИДА МУМИНОВНА**
Основания и последствия лишения родительских прав: теория и практика

87 **ЭГАМБЕРДИЕВ ЭДУАРД ХАЖИБАЕВИЧ, ШАЙМАРДАНОВА ДИЛАФРУЗ ДИЛМУРАТОВНА**
Завещание цифровых объектов: проблемы реализации последней воли наследодателя

## 12.00.07 – СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

97 **ОТАЖОНОВ АБРОРЖОН АНВАРОВИЧ,**
Совершенствование мер ответственности за такие преступления, как незаконный оборот наркотических средств, психотропных веществ и их аналогов

113 **ХУДАЙКУЛОВ ФЕРУЗБЕК ХУРРАМОВИЧ**
Бездействие и его виды в уголовном праве: анализ и предложения

125 **АБДУХАКИМОВ МУРОДУЛЛО ТОГАЕВИЧ**
Состояние прокурорского надзора за исполнением земельного законодательства в зарубежных странах

137 **ИСЛОМОВ БУНЁД ОЧИЛОВИЧ**
Вопросы смягчения наказания в отношении юридических лиц по уголовному законодательству зарубежных стран

## 13.00.02 – ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОТРАСЛЯМ)

147 **ГУЛЯМОВА ГУЛЬНОРА ЯКУБОВНА**
Синонимия и полисемия в юридической терминологии

155 **КАРАХОДЖАЕВА ДИЛОРОМ МАМИРОВНА**
Рузиназаров Шухрат Нуралиевич – выдающийся учёный, представитель современной цивилистической школы Узбекистана



E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

# CONTENTS

## 12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

8 **TULTEYEV ILYAS TAVASOVICH**
On the issue of legal support for strategic planning in Uzbekistan

## 12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

19 **NORMATOV BEKZOD AKRAM UGLI**
Issues of improvement of legal regulation of tax inspections in Uzbekistan
32 **ISTAMOV MAXMUD SHUXRATOVICH**
Political parties as participants of the electoral process: national legislation and its improvement
43 **MUSTANOV ILKHOM ABDIVALIJONOVICH**
Organizational and legal mechanisms for control of banking activities: comparative-legal analysis

## 12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

62 **GULYAMOV SAID SAIDAKHRAROVICH, RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH**
Protecting digital assets: cybersecurity imperatives for Uzbekistan's crypto exchange ecosystem
73 **MAHMUDKHODJAEVA UMIDA MUMINOVNA**
Foundations and consequences of deprivation of parental rights: theory and practice
87 **EGAMBERDIEV EDUARD KHAZHIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Bequest of digital objects: problems of realisation of the last will of the testator

## 12.00.07 – JUDICIARY. PROSECUTOR'S SUPERVISION. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT ACTIVITIES. ADVOCACY

97 **OTAJONOV ABRORJON ANVAROVICH**
Improving liability measures for crimes involving the illegal handling of narcotic drugs, psychotropic substances, and their analogues
113 **KHUDAYKULOV FERUZBEK KHURRAMOVICH**
Inaction in criminal law and its types: analysis and proposals
125 **ABDUKHAKIMOV MURODULLO TOGAEVICH**
The state of prosecutorial control over execution of land legislation in foreign countries
137 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**
Issues of mitigation of punishment for legal entities in the criminal legislation of foreign countries

## 13.00.02 – THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING (BY FIELDS)

147 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
Synonymy and polysemy in legal terminology

155 **KARAXODJAEVA DILOROM MAMIROVNA**
Ruzinazarov Shukhrat Nuralievich – an outstanding scientist, a representative of the modern civil school of Uzbekistan

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.05.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 20.06.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.06.2024

**DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.2./MOUQ3104**
**UDC: 343.222.6(045)(575.1)**

# JINOYAT HUQUQIDA HARAKATSIZLIK VA UNING TURLARI: TAHLIL VA TAKLIF

**Xudaykulov Feruzbek Xurramovich**,
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Jinoyat huquqi, krimonologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrasi professori v.b.,
yuridik fanlar doktori (DSc)
ORCID: 0000-0002-4940-3762
e-mail: dr.profi114@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, induksiya, deduksiya, tizimlilik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy metodlaridan keng foydalanilgan. Jumladan, birinchi navbatda, jinoyat huquqida harakatsizlik tushunchasi, uning obyektiv va subyektiv mezonlari keng yoritilgan. Jinoyat huquqida aralash harakatsizlikda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish toʻgʻrisidagi olimlarning ilmiy qarashlari, tadqiqotlari, ular oʻrtasidagi oʻzaro oʻxshash va farqli jihatlar atroflicha bayon qilingan. Jinoyat huquqida ijtimoiy xavfli qilmishning shakli sifatida jinoiy harakatsizlikning ikkita turi mavjud boʻlib, ular sof va aralash harakatsizlikdan iborat ekanligi va aralash harakatsizlikda sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda muammoli holatlar. Shuningdek, ijtimoiy xavfli harakatsizlikning turi sifatida aralash harakatsizlikning huquqiy tabiati, uning umumiy va maxsus belgilari qiyosiy tahlil qilinib, ulardagi muammoli holatlar aniqlangan va ketma-ket tavsiflab berilgan. Jinoyat huquqida aralash harakatsizlik muayyan harakat va harakatsizliklar majmuyidan tashkil topgan ijtimoiy xavfli qilmishdan iborat ekanligi va uning jinoyat-huquqiy jihatlari ochib berilgan. Ushbu maqolada asosiy e'tibor ijtimoiy xavfli harakatsizlikka qaratilgan boʻlib, uning mezonlari va belgilari instrumental va qiyosiy tahlil qilingan. Mazkur belgining asosiy shartlari aniqlanib, ularning nazariy va amaliy yechimlari oʻrnatilgan va topilgan. Shu bilan birga, jinoyat huquqi doktrinasi va unda mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlil etilib, bu borada asosli nazariy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit soʻzlar:*** *jinoyat, jinoyat tarkibi, jinoyat obyektiv tomoni, jinoiy harakatsizlik, sof harakatsizlik, aralash harakatsizlik.*

## БЕЗДЕЙСТВИЕ И ЕГО ВИДЫ В УГОЛОВНОМ ПРАВЕ: АНАЛИЗ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

**Худайкулов Ферузбек Хуррамович**,
доктор юридических наук (DSc),
и. о. профессора кафедры «Уголовное право,
криминология и противодействие коррупции»
Ташкентского государственного юридического университета

***Аннотация.*** *В статье широко используются логический, индукционный, дедуктивный, систематический, логико-правовой, сравнительно-правовой методы исследования.*

*Прежде всего подробно описывается понятие бездействия в уголовном праве, его объективные и субъективные критерии. Подробно изучены исследования и научные взгляды ряда учёных на общественно опасное деяние, совершаемое в уголовном праве, сходства и различия между ними. Констатируется наличие двух видов преступного бездействия как формы общественно опасного деяния в уголовном праве: чистое бездействие и смешанное бездействие, а также наличие проблем при квалификации преступлений, совершённых в виде смешанного бездействия. Также проведён сравнительный анализ правовой природы смешанного бездействия как вида общественно опасного бездействия, его общих и специальных признаков, выявлены и последовательно описаны их проблемные стороны. В уголовном праве смешанное бездействие состоит из общественно опасного деяния, состоящего из совокупности конкретных действий и бездействий, и раскрываются его уголовно-правовые аспекты. В данной статье основное внимание уделяется общественно опасному бездействию, инструментально и сравнительно анализируются его критерии и признаки. Определены основные условия этого признака, установлены и найдены их теоретические и практические решения. При этом были проанализированы учение об уголовном праве и существующие научные исследования, а также выработаны обоснованные теоретические предложения и рекомендации по этому поводу.*

***Ключевые слова:*** *преступление, состав преступления, объективная сторона преступления, преступное бездействие, чистое бездействие, смешанное бездействие.*

## INACTION IN CRIMINAL LAW AND ITS TYPES: ANALYSIS AND PROPOSALS

**Khudaykulov Feruzbek Khurramovich,**
Tashkent State University of Law,
Acting Professor of the Department of Criminal Law
Criminology and Anti-Corruption,
Doctor of Science in Law (DSc)

***Abstract.*** *The article widely uses logical, inductive, deductive, systematic, logical-legal, and comparative-legal research methods. In particular, first of all, the concept of inaction in criminal law and its objective and subjective criteria are described in detail. The scientific views and studies of scientists on a socially dangerous act committed in criminal law and the similarities and differences between them are described in detail. The presence of two types of criminal inaction as a form of socially dangerous act in criminal law, consisting of pure and mixed inaction, as well as the existence of problematic moments in the qualification of crimes committed in mixed inaction, is proved. A comparative analysis of the legal nature of mixed inaction as a type of socially dangerous inaction was also carried out, and its general and special features and problematic aspects were also identified and consistently described. In criminal law, mixed inaction consists of a socially dangerous act consisting of a combination of specific actions and inactions, and its criminal legal aspects are revealed. This article focuses on socially dangerous inaction, both instrumentally and comparatively, and analyzes its criteria and features. The main conditions of this sign are determined, and their theoretical and practical solutions are established and found. At the same time, the doctrine of criminal law and existing scientific research were analyzed, and reasonable theoretical proposals and recommendations were developed in this regard.*

***Keywords:*** *crime, composition of crime, objective side of crime, criminal inaction, pure inaction, mixed inaction.*

**Kirish**

Ijtimoiy xavfli qilmishning muayyan shakli sifatida jinoiy harakatsizlik to'g'risidagi masala dastlab XIX asrda o'rganilgan. Ushbu masalaga birinchilardan bo'lib e'tibor qaratgan huquqshunos olim Anselm Feyerbax. U: "Jinoyat tegishli vazifa va majburiyatlarni bajarmaslikda ifodalanishi mumkin. Bajarmaslik, harakat qilmaslik – "delikta omissionis", qonunga xilof qilmish – "delikta commissionis" deb ataladi" [1, 24-b.], – deb ta'kidlangan.

Jinoiy harakatsizlik – bu jinoiy javobgarlikka tortish uchun shaxsning normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalari va majburiyatlarida bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni real imkoniyatga ega bo'la turib bajarmaslikda ifodalangan, obyektiv va subyektiv shartlar yig'indisi bir vaqtda mavjudligi lozim bo'lgan, ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, ongli, irodaviy va tashqi sust xulq-atvoridir.

Jinoiy harakatsizlikning belgilarini shartli ravishda quyidagilarga bo'lish mumkin: –onglilik, irodaviylik, ixtiyoriylik, tashqi nofaollik, murakkablik. Murakkablik uning xususiyati bilan bog'liq bo'lib, unda tashqi obyektiv qonuniyatlar ishtirokini bildiradi.

Ijtimoiy xavflilik, huquqqa xiloflik jinoiy harakatsizlikning maxsus belgilari hisoblanadi. Harakatsizlikning ijtimoiy xavflilik belgisi uning moddiy belgisi bo'lsa, huquqqa xiloflik yuridik belgisidir.

Ijtimoiy xavfli harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlik u orqali JK bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazilganda vujudga keladi. Aksincha, shaxs harakatsizligi jinoyat obyektiga zarar yetkazmasa, u boshqa javobgarlik turlari bilan javobgarlikka tortiladi. Masalan, intizomiy, ma'muriy va boshqalar. Shaxs zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni harakatsizlik orqali bajarmaslikda ijtimoiy xavflilik belgisi bo'lmaydi.

**Material va metodlar**

Maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, tizimlilik, induksiya, deduksiya, qiyoslash, tasniflash, umumilmiy va maxsus usullaridan, ya'ni qiyosiy-huquqiy, tahliliy, mantiqiy-yuridik va boshqa metodlaridan keng foydalanilgan. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi tizimli o'rganilgan holda, ijtimoiy xavfli harakatsizlik bilan bog'liq amaldagi Jinoyat kodeksi normasi takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalari**

*Harakatsizlik tushunchasi yuzasidan konsepsiyalar tahlili. Birinchi yondashuv.* Jinoyat huquqi nazariyasida harakat va harakatsizlikning farqli jihatlarini ajratmaydigan tadqiqotchilar ham bor. Masalan, F. Polyachek: "Harakatsizlik va harakat o'rtasida sifat jihatdan asosiy farq mavjud emas. Shaxs jinoiy xulq-atvorining bunday usuli o'rab turgan holatga inson ta'sir ko'rsatishi uchun yaroqli, mos keladimi degan masala borasida gap boradi" [2, 110-111-b.], – deb ta'kidlaydi.

G.K. Matveyev: "Harakatsizlik shaxs jinoiy xulq-atvorining tashqi ko'rinishi sifatida huquqiy nuqtayi nazardan qaraganda harakatdan tubdan farq qilmaydi" [3, 26-b.], – deydi. A. Mamedovning fikricha esa "harakat va harakatsizlik umumiy xususiyat kasb etib, ularning umumiyligi normativ sohada ifodalanadi" [4, 57-b.].

V.N. Kudryavsevga ko'ra, "jinoyat qonunida jinoiy harakatning ham, jinoiy harakatsizlikning ham ta'rifi berilmagan. Ular jinoiy qilmishning umumiy ta'rifida birlashgan holda nazarda tutiladi. Mazkur tushunchalar ba'zi umumiylik xususiyatiga ega ekanligi haqida xulosa chiqarishga asos bo'ladi" [5, 85, 32-b.].

*Ikkinchi yondashuv.* Jinoyat huquqi nazariyasida ijtimoiy xavfli qilmishning shakllari bo'lgan harakat va harakatsizlikning jismoniy farqlarini ajratgan olimlar ham mavjud. Harakat va harakatsizlikning jismoniy farqlarini ijtimoiy va ruhiy sohada ko'rish bilan bog'liq ilmiy yondashuvlar mavjud.

Jumladan, A.A. Ter-Akopov: "Harakat va harakatsizlik faqat jismoniy darajada bir-bi-

2024-YIL 2-SON
VOLUME 8
ISSUE 2 / 2024

riga qarama-qarshi qoʻyilishi mumkin. Bizni esa jismoniy emas, balki xulq-atvorning ijtimoiy mazmun-mohiyati qiziqtiradi. Umumiy jihatdan ular jinoyat qonuni bilan qoʻriqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi va ular shu nuqtayi nazardan faol (aktiv) kuchni ifodalaydi... Harakatsizlik oʻzining psixofizik (ruhiy-jismoniy) sohasida harakatdan farq qilmaydi, xulq-atvorning ikkala shakli ham insonning asab faoliyati natijasi hisoblanadi" [6, 13, 29-b.], – deydi.

*Uchinchi yondashuv.* Jinoyat huquqida ijtimoiy xavfli harakatsizlikda uning belgilari ichida jismoniy belgi boʻlmasligi va u jismoniy tizilishdan iborat tarkibga ega emasligi toʻgʻrisidagi bir guruh olimlar oʻz ilmiy qarashlarini bayon qilishadi. Bu ijtimoiy xavfli harakat va harakatsizlikning eng asosiy farqli jihati hisoblanadi.

Xususan, V.D. Filimonov: "Harakatsizlik shundan iborat boʻladiki, inson tana harakatlarini ham, u ogʻzaki iboralarni ham amalga oshirmaydi" [7, 142-b.], – deydi.

Bu ilmiy qarashga qoʻshilib boʻlmaydi. Ijtimoiy xavfli harakatsizlikda tana harakatlari, ogʻzaki yoki yozma soʻz ifodasi va imo-ishoralardan iborat tashqi belgilarga ega harakatlar sodir etilmaydi. Odatda, jinoiy harakatsizlikda majburiyatlarni bajarmaslikda ifodalangan "harakatsiz xavfli holat" uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqqanday koʻrinadi. Aslida esa unday emas. Chunki sof jinoiy harakatsizlikning oʻzi obyektiv real haqiqatda mavjud boʻlmaydi.

*Toʻrtinchi yondashuv.* Ijtimoiy xavfli harakatsizlik va jinoyat mavjud emasligi oʻrtasida chegara mavjud. Bu chegarada asosiy mezon shaxsning vazifa va majburiyatlarni bajarishda muayyan tarzda harakat qilish majburiyatidir.

Jumladan, M. Usmonaliyev va P. Bakunovlarga koʻra, "quyidagi hollarda harakatning muayyan shaklini bajarish majburiyati vujudga keladi: 1) shunday harakatni bajarish toʻgʻridan toʻgʻri qonunda belgilangan boʻlsa; 2) shartnoma boʻyicha yuklatilgan majburiyatlarni bajarishga majburligi; 3) mansab vakolati yoki vazifasi tufayli bajarishi shart boʻlgan majburiyatlari; 4) oilaviy munosabatlar tufayli bajarilishi shart boʻlgan majburiyatlar; 5) shaxsning oʻz harakatlari tufayli kelib chiqadigan majburiyatlar" [8, 179-b.].

X. Abzalovaning fikricha, "Jinoiy harakatsizlikni javobgarlikka tortish uchun unda ikkita shart mavjud boʻlishi lozim... Obyektiv shart boʻyicha muayyan harakatni amalga oshirish quyidagi asoslarda: qonun talabi bilan; sudning qarori bilan, kasbiy (mansab) majburiyatlari bilan, aybdorning harakatlari tufayli boʻlishi mumkin" [9, 68-b.].

X.R. Ochilov va Sh.D. Haydarovlarning ta'kidlashicha, "Shaxsga yuklatilgan majburiyatlar kelib chiqishining huquqiy asosini quyidagilar tashkil qiladi: qonun yoki qonunosti normativ hujjatlar, xizmat vazifasi yoki kasbiy majburiyati, qarindoshlik munosabatlari, shaxsning ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqqunga qadar boʻlgan xulq-atvori natijasida shaxsga ma'lum bir majburiyatlarning yuklatilishi ya'ni shaxsning oʻzi jabrlanuvchini xavfli ahvolga solib qoʻyganligi" [10, 35-b.].

Ijtimoiy xavfli harakatsizlik normativ hujjatlarda yuklatilgan majburiyatlarda muayyan harakatlarni real imkoniyatga ega boʻla turib bajarmaslikda ifodalangan tashqi sust xulq-atvor hisoblanadi. Oʻziga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlar bajarilishida shaxs muayyan shaklda harakat qilishi lozim. Bunda harakat va harakatsizlik turli tomonlarda yotadi degan xulosa kelib chiqadi. Albatta, shaxsda oʻziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishda harakat qilish imkoniyati boʻlishi zarur.

*Beshinchi yondashuv.* Bunga koʻra, ijtimoiy xavfli harakatsizlikda shaxs tana harakatlari toʻgʻrisidagi masalani hal etish muhimdir. Ushbu masalaga tashqi obyektiv (tabiat) kuchlar, mexanizmlar kuchlari va boshqalarni ham qoʻshish toʻgʻrisidagi munozarali masala ham namoyon boʻladi.


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

Jinoyat huquqi doktrinasida: N.F. Kuznetsova, M.I. Kovalev, N.L. Nirkova, M. Usmonaliyev, P. Bakunov, R. Kabulov, X. Abzalova, M. Rustambayevlar bir qator olimlar kabi aynan jinoiy harakat tushunchasidagina yuqorida ko'rsatilgan tabiat kuchlari, tashqi obyektiv kuchlar, turli mexanizmlar kuchlarini qo'shgan.

Jumladan, N.F. Kuznetsovaning ta'kidlashicha, "jinoiy xulq-atvorning nofaol (passiv) shakli bo'lgan harakatsizlikda shaxs boshqa shaxslarga, mexanizmlarga, hayvonlarga va boshqalarga jinoiy oqibatni keltirib chiqarishga ruxsat beradi" [11, 241-b.].

M.I. Kovalev va N.L. Nirkovalarning fikricha, "harakatsizlikda aybdor shaxsning nofaol (passiv)ligi u nazorat qilishi kerak bo'lgan yoki mumkin bo'lgan buzg'unchi kuchlarning ochiq maydonga chiqishi va aynan shu holat uni kelib chiqqan jinoiy oqibat (natija)da aybli deb topishga imkon beradi" [12, 158-b.].

M.X. Rustamboyevga ko'ra, "jinoiy harakatsizlik – shaxsning bajarishi shart va mumkin bo'lgan harakatni bajarmaslikda ifodalanadigan passiv xulq-atvoridir. Harakatsizlik harakatdan jismoniy jihatdan, ya'ni tana harakatlari va u bilan bog'liq tashqi dunyo predmetlarini ishlatish, tabiat kuchlari va ne'matlaridan foydalanilmasligi bilan farq qiladi" [13, 162-b.].

Jinoyat huquqi doktrinasida shu nuqtayi nazardan harakatsizlik tushunchasi (ta'rifi) ga tashqi obyektiv kuchlar va qonuniyatlarni qo'shish mumkin emas.

Jinoyat huquqi nazariyasida ijtimoiy xavfli harakatsizlik natijasida jinoiy oqibatlar keltirib chiqaradigan kuchlar harakatda bo'ladi, degan ilmiy yondashuv to'g'ri emas. Ular shaxsda muayyan harakatni sodir etish majburiyati paydo bo'lgunga qadar ham harakatda bo'ladi. Misol tariqasida, temiryo'lda poyezdlar yo'nalishini o'zgartirib turuvchi, ya'ni yo'nalish boshqaruvchisining harakatsizligi natijasida ikkita poyezdning bir-biriga to'qnashuvida poyezd harakati harakatsizligidan oldin boshlanishini keltirish mumkin. Shuningdek, qonunga ko'ra, bemorga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan shifokordan oldin jabrlanuvchining xavfli ahvoldaligi mavjud bo'ladi.

**Tadqiqot natijalari tahlili**

Ijtimoiy xavfli harakatsizlik turlari va ularni aniqlash mezonlari. Ma'lumki, ijtimoiy xavfli harakatsizlikning obyektivlik va normativlik mezonlari mavjud. Shu mezonlar asosida ijtimoiy xavfli harakatsizlikning ikkita asosiy turi tasniflanadi. Qonun chiqaruvchi JK Maxsus qismi normalarini shakllantirishda yuqoridagi mezonlarga asoslangan harakatsizlikning ikkita turini nazarda tutadi: *1) sof harakatsizlik; 2) aralash harakatsizlik.*

Jinoiy harakatsizlikni o'rganishning metodologik asosi sifatida "obyektivlik" ("pozitivizm" – chinakam pozitiv bilimga maxsus fan natijasi sifatida qarash) yo'nalishi bo'yicha harakatsizlik shaxs xulq-atvorining nofaol (passiv) shakli bo'lib, unda inson tinch holatda turadi va hech qanday harakatlar bajarmaydi. Masalan, jangovar vaziyatda o'q otish buyurilgan askarning tinch holatda, ya'ni hech nima qilmasdan sof harakatsizlikda buyruqni bajarmasligi (JK 279-m.)

Jinoiy harakatsizlikni o'rganishning metodologik asosi sifatida "normativlik" (jinoyat qonunida belgilangan) yo'nalishi bo'yicha harakatsizlik deganda esa, asosan, aralash harakatsizlik, ya'ni jinoiy harakatsizlikda ifodalangan muayyan majburiyatlarni bajarmaslik uchun turli harakatlar sodir etilishi tushuniladi. Ijtimoiy xavfli harakatsizlik usuli sifatida harakat sodir etish jinoyat harakatsizlikda sodir etilgan deb topiladi. Misol tariqasida, onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash uchun farzandning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib ketishi (JK 123-m).

Ijtimoiy xavfli harakatsizlikda shaxsga normativ-huquqiy hujjatlar bilan muayyan majburiyatlar yuklatiladi. U mazkur majburiyatlarni bajarishda muayyan harakatlarni bajarishi lozim. Bu harakatlar tavsifi va ularni bajara olishning real imkoniyati obyektiv

va subyektiv mezonlar asosida aniqlanadi. Masalan, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlash. Ya'ni jinoyat subyektida unga yuklatilgan majburiyatlarni bajara olish imkoniyati.

Amaldagi JKda ijtimoiy xavfli xulq-atvorning nofaol (passiv) shakli sifatida harakatsizlikning obyektiv mezoniga koʻra, muayyan harakatlarni bajarmaslikda ifodalangan nafaol (passiv) jinoiy xulq-atvor bevosita quyidagicha ifodalanadi:

1. Qonunda nazarda tutilgan. Jinoyat kodeksi yoki boshqa qonun yoxud normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan boʻladi. Masalan, JK 241-moddasida, 261-262-moddalari va boshqalar.

2. Xizmat, kasbiy yoki mansab vazifalari va majburiyatlari. Masalan, JK 116-moddasi, 144-moddasi, 207-moddasi, 302-moddasi va boshqalar.

3. Sudning qarorida nazarda tutilgan. Sudning qarori bilan shaxsga turli majburiyatlarni bajarish yuklatilishi mumkin. Masalan, JK 122-, 123-moddalari boshqalar.

4. Aybdorning harakatlari tufayli. Bunda jinoyatchi shaxs jabrlanuvchini muayyan xavfli ahvolga solib qoʻyadi va u unga yordam berishi shart boʻladi. Misol uchun, yoʻl-transport hodisasini sodir qilgan shaxs jabrlanuvchini avtotransport vositasida urib, xavfli ahvolga solsa, unga yordam koʻrsatishi shart. Aks holda, u kelib chiqqan oqibatga qarab JK 117-moddasi turli qismlari bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi (yuqoridagilar aralash – "obyektivlik" va "normativlik" – mezonlar asosida tasniflandi).

M. Usmonaliyev, P. Bakunov, M.X. Rustamboyev va X. Abzalovalar ham jinoiy harakatsizlikka xos boʻlgan, ya'ni jinoiy harakatsizlikni javobgarlikka tortish uchun unda ikki mezon va shartlar mavjud boʻlishi lozimligini [13, 163-b.; 14, 179-b.; 9, 68-b.] ta'kidlashadi. Obyektiv mezon normativ hujjatlarda belgilangan shaxs bajarishi shart boʻlgan vazifa va majburiyatlar boʻlsa, subyektiv mezon ushbu vazifa va majburiyatlarni bajarishda shaxsda haqiqiy imkoniyatlar mavjud boʻlishi lozimligi hisoblanadi.

George P. Fletcher: "Namunaviy Jinoyat kodeksida vazifa va majburiyatlarning bajarilishi talab qilingan harakat qonun bilan belgilanadi. Qonunda nazarda tutilgan majburiyatni bajarmaslikdagi harakatsizlikda jinoiy javobgarlik kelib chiqishi mumkin emas" [15, 47-48-b.], – deb ta'kidlaydi.

U.S. Djekebayev fikricha, "shaxsning harakat qilish majburiyati quyidagilarga asoslanadi: 1) jinoyat qonunida belgilangan, ya'ni jabrlanuvchini urib yuborgan haydovchi uni yaqin boʻlgan davolash muassasasiga olib borishi lozim. Haydovchining bu majburiyatni bajarmasligi uning jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab boʻladi; 2) shartnomaviy munosabatlardagi majburiyat yoki kasb yuzasidan kelib chiqqan majburiyatlar (jarrohlik amaliyotini boshlagan jarroh uni oxiriga yetkazishga majbur); 3) boshqa holatlardan kelib chiqadigan majburiyatlar (xizmat, kasb, maxsus topshiriq va boshqalar)" [16, 101–103-b.].

Yuqoridagi olimlarning ijtimoiy xavfli qilmish shakli boʻlgan jinoiy harakatsizlikka bagʻishlangan tadqiqotlarini oʻrganib, quyidagi xulosaga keldik:

Jinoiy harakatsizlik uchun javobgarlik asoslari uchta: faktik, yuridik (huquqiy) va subyektiv. Yuridik asos – normativ-huquqiy hujjatlarda muayyan vazifa va majburiyatlar belgilangan boʻladi va shaxs ularni bajarmaydi; faktik asos – normativ-huquqiy hujjatlarda yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni shaxs obyektiv haqiqatda aniq bajarmaydi; subyektiv asos – yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarishda real imkoniyat mavjudligi talab etiladi. Ulardan birining mavjud emasligi harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlik keltirib chiqarmaydi. Jinoiy harakatsizlikda harakatni bajarish majburiyatida yana boshqa bir harakatni bajarish majburiyati mavjud boʻlishi mumkin. Bunda oʻziga xos qarama-qarshilik yuzaga keladi va ushbu ho-


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

latda JK 38-moddasida nazarda tutilgan oxirgi zaruratga oid qoidalar qo'llanishi lozim.

*Aralash harakatsizlik muammolari.* Jinoyat huquqi nazariyasi va ilmiy tadqiqot ishlarida aralash harakatsizlik mahalliy va xorijiy olimlarning ko'pchiligi tomonidan deyarli muhokama qilinmaydi. Buning asosiy sababi aralash harakatsizlikni yo ko'pchilik umuman tushunmaydi, yo boshqacha anglaydi. Shuning uchun ham jinoyat huquqi doktrinasi va ilmiy tadqiqotlarga "aralash harakatsizlik" muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan va o'rganilmagan.

Sh. Haydarovning ta'kidlashicha, "aralash harakatsizlik subyekt bajarishi shart bo'lgan vazifalarni to'liq va oxirigacha bajarmasligidir" [17, 65-b.].

I.Y. Kozachenko va Z.A. Neznamovalar: "Jinoyat tarkibining obyektiv tomonlari o'zida aralash harakatsizlikni ifodalaydigan harakatdan ham, harakatsizlikdan ham iborat bo'lishi mumkin" [18, 148-b.], – deydi.

P.I. Grishev va V.E. Melnikovlarning fikricha, "jinoyat-huquqiy harakatsizlik murakkab xususiyatga ega bo'lib, u har doim ham shaxsning mutlaq nofaol (passiv) xulq-atvorida namoyon bo'lmaydi. Qonun shunday holatlarda jinoiy javobgarlikni nazarda tutadiki, unda shaxs o'ziga yuklatilgan huquqiy majburiyatlarni amalga oshirayotib, ularni yoki oxirigacha bajarmaydi yoki nomaqbul ko'rinishda bajaradi" [19, 139-b.].

G.V. Timeykoning ta'kidlashicha, "aralash harakatsizlik ikkita ko'rinish va turga bo'linadi: birinchisi, mustaqil aralash harakatsizlik – bu mustaqil ravishda vujudga kelgan va aybdordan mustaqil ravishda harakatlanadigan tashqi kuchlar yetkazadigan zararning oldini ololmaslik; ikkinchisi, shaxsning mavjud oldingi aybsiz harakatlari natijasida vujudga kelgan tashqi kuchlar tomonidan yetkazilgan zararning oldini ololmaslik" [20, 18-b.].

*Biz yuqoridagi olimning aralash harakatsizlikni muayyan turlarga bo'lish haqidagi ilmiy yondashuviga qo'shilmaymiz.* Chunki aralash harakatsizlik tushunchasi jinoyat huquqida mavjud an'anaviy konsepsiya va nazariyalardan kelib chiqishi lozim.

N.I. Panovning fikricha, "aralash harakatsizlik faol (harakat) va passiv (harakatsizlik) jinoiy xulq-atvor yig'indisidir. Faol (aktiv) harakat – harakatsizlikning amalga oshishini ta'minlovchi holat – usul sifatida namoyon bo'ladi" [21, 18-b.].

Bizning fikrimizcha, aralash harakatsizlikka berilgan yuqoridagi ta'rif uning tabiati, mazmun-mohiyati va tuzilishini to'liq ochib berolmaydi.

Aralash harakatsizlik muammosining quyidagi yechimini ifodalaymiz. *Harakat va harakatsizlik yig'indisidan iborat aralash harakatsizlik:*

– aralash harakatsizlikning oldingi harakatda ayb shakli mavjud emasligi ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibat uchun shaxs jinoiy javobgarligini istisno etadi;

– aralash harakatsizlikning oldingi harakatda ayb shakli mavjud emasligi faqat harakatsizlik jinoyat-huquqiy ahamiyat kasb etishini anglatadi. Aralash harakatsizlikda ifodalangan jinoyat tarkibi belgilar (obyektiv va subyektiv) yig'indisidan tashkil topadi. Agar oldingi harakatda jinoyat tarkibining subyektiv belgisi bo'lmasa javobgarlik harakat uchun kelib chiqmaydi;

– aralash harakatsizlikda oldingi harakat ehtiyotsizlik orqasida sodir etilsa, jinoiy javobgarlik har ikkala harakat va harakatsizlik uchun ham kelib chiqadi. Kelib chiqqan oqibat uchun jinoiy javobgarlikning obyektiv asosi harakat hisoblanadi. Bunday harakat o'zida xavf ostiga qo'yishni ifodalaydi.

*Harakat usuli bilan sodir etilgan jinoiy harakatsizlik.* Aralash harakatsizlik – harakat usuli bilan sodir etilgan jinoiy harakatsizlik bir-biriga juda ham o'xshash tushunchalar bo'lganligi uchun ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar, adabiyotlarda ularni aralashtirish holatlari kuzatiladi.

Tadqiqot natijasi sifatida jinoiy aralash harakatsizlikni quyidagi matematik algoritm (ketma-ketlik) formulasida ifodalash maqsadga muvofiq: A – harakat (aralash harakatsizlikda birinchi harakat boʻladi); B – harakatsizlik; C – jinoiy oqibat; D – jinoiy javobgarlikka tortilish uchun obyektiv mezon; E – jinoiy javobgarlikka tortilish uchun subyektiv mezon; F – jinoyat; A+B(D+E)+C=F.

Yuqoridagi tadqiqotimizdan kelib chiqib, aralash harakatsizlikka quyidagicha ta’rif beramiz:

Aralash harakatsizlik – shaxsning ongli, irodaviy tashqi faol xulq-atvoridan iborat oldingi harakati tufayli Jinoyat kodeksi bilan qoʻriqlanadigan obyektlarga zarar yetkazilishi oqibatida unda nazarda tutilgan zararli, ijtimoiy xavfli oqibat keltirib chiqaradigan va bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni real imkoniyatga ega boʻla turib bajarmaslikda ifodalangan, harakatsizlikda ularning oldini olmaydigan harakat va harakatsizlik majmuyi. Ushbu aralash harakatsizlik faqat moddiy tarkibli jinoyatlarda boʻladi, degan xulosa kelib chiqadi. Aralash harakatsizlikda harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlik vujudga kelishining obyektiv va subyektiv mezonlari mavjud. Obyektiv mezon normativ hujjatlarda belgilangan vazifalar, majburiyatlar, subyektiv mezon esa ushbu majburiyatlarni bajara olishning real imkoniyatidir.

Aralash harakatsizlikda shaxs oʻzining oldingi harakati tufayli zararli oqibatning real xavfini yaratadi va uning oldini ololmaydi. Masalan, yoʻl harakati qoidalariga rioya qilib ketayotgan avtotransport vositasi haydovchisining piyodani qoida buzishi natijasida urib ketishi va voqea joyidan ketib qolishi hamda yoʻl-transport hodisasi natijasida jabrlanuvchining vafot etishini keltirish mumkin.

Aralash harakatsizlikning tabiatini aniqlashtirish uchun sudlar tomonidan koʻrilgan bir nechta jinoyat ishini oʻrganamiz.

A. va B. bezorilik oqibatida V.ni urib, uning badaniga ogʻir darajada tan jarohati yetkazishadi. Ular V.ni urib boʻlganidan keyin unga yordam koʻrsatmasdan yerda yotgan holda tashlab ketishadi. Birinchi instansiyada sud A. va B.larning jinoiy qilmishini OʻzR JK 104-m. 2-q. “e”; 3-q. “d” hamda JK 117-moddasi bilan kvalifikatsiya qilgan holda ularni hukm qiladi. Yuqori instansiya sudi hukmdan A. va B.larning jinoiy qilmishi bilan OʻzR JK 117-moddani olib tashlaydi va ushbu jinoyat ishidan JK 117-moddasi bilan bogʻliq qismini bekor qiladi. Shuningdek, sud quyidagilarni bayon qiladi: shaxs qasddan oʻzga shaxsning sogʻligʻiga shikast yetkazishda jabrlanuvchini xavf ostida qoldirib ketishi uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi [22].

Yuqoridagi hukmda koʻrilgan A. va B.larning jinoiy qilmishida birinchi harakat, ya’ni ular tomonidan V.ga yetkazilgan ogʻir tan jarohatida ularning harakati uchun ayb qasddan boʻladi va xavf ostida qoldirishda ifodalangan harakatsizligi uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi. Jinoiy javobgarlik butunlay ijtimoiy xavfli harakat uchun boʻladi.

Ikkinchi amaliy misol. 2023-yil 20-mart soat 20:00 dan 21-mart soat 05:00 ga qadar boʻlgan vaqt oraligʻida J. va Gʻ. bilan bir guruh boʻlib, qasddan badanga shikast yetkazish maqsadida Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi xonadonda M. bilan spirtli ichimliklar iste’mol qilishib, mast holatda boʻla turib, oʻzaro kelib chiqqan kelishmovchilik natijasida M.ning bosh qismi va tanasining turli sohalariga koʻp marotaba qoʻllari bilan urishib, oyoqlari bilan tepishib, muttasil ravishda doʻpposlab, hayoti uchun xavfli boʻlgan shikast yetkazishgan va natijada M.ni koʻchaga chiqarib tashlashgan. U 2023-yil 22-mart kuni bosh miya yumshoq parda osti va miyachaga qon quyilishlar, oʻpkaning yirtilishi, qovurgʻalarning koʻplab sinishi, ichki qon yoʻqotish bilan kechgan bosh va koʻkrak qafasining yopiq shikastlanishi natijasida vafot etgan. Birinchi instansiya sudi J. va Gʻ.larning harakatini JK 104-m. 2-q. “k” bandi va 117-m. 2-q. bilan aybli deb topib, hukm qiladi. Yuqori instansiya sudi aybdorlarning harakatlarini


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

JK 104-m. 2-q. "k" va 3-q. "d" bandi bilan qayta kvalifikatsiya qilgan [23].

Yuqoridagi vaziyat toʻgʻrisida shuni aytish mumkinki, shaxs qasddan oʻzga shaxsning sogʻligʻiga shikast yetkazishda jabrlanuvchini xavf ostida qoldirib ketishi uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi. Aybdorlarning jinoiy qilmishida birinchi harakat, ya'ni ular tomonidan M.ga yetkazilgan ogʻir tan jarohatida ularning harakati uchun ayb qasddan boʻladi. Sodir etilgan jinoiy harakat natijasida roʻy bergan ijtimoiy xavfli oqibat ehtiyotsizlikdan kelib chiqadi. Shaxs xavf ostida qoldirishdan iborat harakatsizligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

*Jinoiy harakatsizlik ikki ajratiladi: sof harakatsizlik va aralash harakatsizlik.* "Sof" harakatsizlikka JK 221- va 279-moddalarini misol qilib keltirish mumkin. Bunda normativ-huquqiy hujjatda belgilangan harakatni bajarmaslik ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish fakti boʻladi. Bu faktning mavjudligi ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishi yoki kelib chiqmasligidan qat'i nazar, inobatga olinadi. "Aralash" harakatsizlikka JK 260- va 266-moddalaridagi qilmishlarni misol keltirish mumkin.

Sof harakatsizlik va aralash harakatsizlik belgilari hamda ularning qiyosiy-huquqiy tahlili asosida quyidagilar aniqlandi:

1) obyektiv belgilari boʻyicha oʻxshash jihatlari: sof harakatsizlik va aralash harakatsizlikda jinoiy javobgarlikka tortish uchun obyektiv va subyektiv mezon, shartlar bir vaqtda boʻlishi lozim. Bu qonunda belgilangan majburiyatlar va majburiyatlarni bajara olish real imkoniyati majmuyini anglatadi. Aralash harakatsizlik harakat va harakatsizlik yigʻindisidir;

2) harakatsizlikni sodir qilish usuli boʻlgan harakat mustaqil jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega boʻlmaydi. Ya'ni usul va harakatsizlik ajralmas bir butunlikda bir vaqtda sodir etiladi. Bunda shaxs jinoiy javobgarlikka faqat harakatsizligi uchun tortiladi. Masalan, JK 260-, 266-m. va boshqalar. Aralash harakatsizlikda harakat va harakatsizlik yagona ajralmas ichki tuzilishda namoyon boʻladi va harakatsizlik tufayli jinoiy oqibat kelib chiqadi. Unda shaxsning harakati zararli, ijtimoiy xavfli oqibat roʻy berishining real xavfini keltirib chiqaradi va u ularning oldini ololmaydi;

3) ba'zi jinoyatlarda ijtimoiy xavfli harakatsizlikning ikkala turi (sof harakatsizlik va aralash harakatsizlik)da ayb shakli bir xil boʻladi. Farqli jihatlari: harakat usuli bilan; ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoiy harakatsizlikda – oldingi harakatda subyektiv tomondan ayb shakli mavjud boʻlmaydi. Shuning uchun u jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega boʻlmaydi. Qasddan sodir etilgan aralash harakatsizlikda harakatsizlik uchun emas, balki oldingi qasddan qilingan harakat uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqadi. Masalan, oʻzaro urush-janjal natijasida qasddan badanga ogʻir tan jarohati yetkazib, sovuq kunda ojiz ahvolda xavf ostida qoldirish (JK 104-m.). Aralash harakatsizlikda oldingi harakat aybning ehtiyotsizlik shaklida sodir qilinsa, jinoiy javobgarlik ham harakat uchun vujudga keladi, ham harakatsizlik uchun kelib chiqadi. Misol uchun, bogʻchada tarbiyachining yuvinish xonasida beparvolik bilan issiq suvni ochiq holda qoldirishi oqibatida bolaning kuyib qolishi. Aralash harakatsizlikda harakat jinoyatni sodir etish usuli degan qoidaga qoʻshilmaymiz. Ma'lumki, harakatsizlik harakat tarkibiga kirmaydi va ular mustaqil tarkiblariga ega boʻladi.

JK Maxsus qismida "boʻyin tovlash" bilan bogʻliq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda aralash harakatsizlikning obyektiv va subyektiv belgilari, albatta, inobatga olinishi lozim. Harakatsizlik usuli boʻlgan harakatlarni toʻgʻri aniqlash ushbu turdagi jinoyatlar (JK 122–123-m., 183-m. 2-q., 184-, 195-, 225-, 232-, 240-, 260-, 266-, 290-m. va boshqalar) ning toʻgʻri kvalifikatsiya qilinishiga olib keladi.

**Xulosa**

Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni bilan bogʻliq JK Umumiy qism normalari va JK VIII

boʻlimini takomillashtirish zarurati mavjudligini inobatga olgan holda, quyidagi xulosalarga keldik:

Ijtimoiy xavfli harakatsizlikning belgilarini tavsiflashda milliy va xorijiy olimlar ilmiy ishlarida quyidagi belgilar nazarda tutiladi: "jinoiy harakatsizlikning umumiy belgilari: onglilik, irodaviylik, ixtiyoriylik, tashqi nofaol (passiv)lik, murakkab xususiyatlilik (muayyan jinoiy oqibat roʻy berishida tabiat, tashqi obyektiv qonuniyatlari va kuchlarining ishtiroki); uning maxsus belgilari: ijtimoiy xavflilik (moddiy belgisi), huquqqa xiloflik (yuridik belgisi)" [24-28].

Yuqorida bayon qilganimizdek, olimlardan "M.H. Rustamboyev, M. Usmonaliyev, P. Bakunov, George P. Fletcher, Paul H. Robinson, V.N. Kudryavsev, G.V. Timeyko, M.I. Kovalev, N.F. Kuznetsova, I.Y. Kozachenko, Z.A. Neznamova, U.S. Djekebayevlar jinoiy xulq-atvorning nofaol (passiv) shakli boʻlgan harakatsizlikni ikki turga: sof va aralash harakatsizlikka ajratishadi" [29-30].

Olimlarning ilmiy qarashlari va yondashuvlarini oʻrgangan holda, quyidagilarni bayon qilamiz:

birinchidan, "ijtimoiy xavfli harakatsizlik" ijtimoiy xavflilik, huquqqa xiloflik, onglilik, ixtiyoriylik, irodaviylik belgilaridan tashqari "murakkab xususiyatga egalik" (muayyan jinoiy oqibat roʻy berishida tabiat, tashqi obyektiv qonuniyatlar va kuchlar ishtiroki) kabi zaruriy belgiga ham ega. Maʼlumki, ijtimoiy xavfli harakatsizlik maʼlum bir tashqi obyektiv qonuniyatlar va kuchlarga oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Ular birgalikda jinoyat obyektiga zarar yetkazadi yoki zarar yetkazishning real xavfi ostida qoldiradi;

ikkinchidan, anglo-sakson huquq oilasidagi "actus reus – mens rea" konsepsiyasidan iborat jinoiy akt (qilmish)dagi harakatsizlikda ijtimoiy xavflilik, huquqqa xiloflik, onglilik, ixtiyoriylik, irodaviylik belgilari bilan birga murakkab xususiyatga egalik kabi zaruriy belgi ham mavjud;

uchinchidan, JK VIII boʻlimining atamalar huquqiy maʼnosida ijtimoiy xavfli harakatsizlik tushunchasida murakkab xususiyatga egalik kabi zaruriy belgi ifodalanmagan;

toʻrtinchidan, amaldagi JK VIII boʻlimida atamalarning huquqiy maʼnosida aralash harakatsizlik tushunchasiga taʼrif berilmagan.

Harakatsizlik ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, ongli, irodaviy, ixtiyoriy, nofaol (passiv) va murakkab xususiyatga egalik kabi zaruriy belgilari mavjud boʻlsagina u jinoiy harakatsizlik boʻlishi haqidagi ilmiy yondashuvlar oʻrganilishi asosida JK VIII boʻlimida atamalarning huquqiy maʼnosida harakatsizlik tushunchasini quyidagicha bayon qilish va aralash harakatsizlik tushunchasi bilan toʻldirish taklif qilinadi:

"Harakatsizlik – shaxsning normativ hujjatlarda, sud qarorida, shaxs oʻz harakatlari tufayli yoki xizmat, kasbiy yoxud mansab vazifalari va majburiyatlarida bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni real imkoniyatga ega boʻla turib bajarmaslikda ifodalangan ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, ongli, irodaviy va murakkab xususiyatga ega tashqi sust xulq-atvori.

Aralash harakatsizlik – shaxsning ongli, irodaviy tashqi faol xulq-atvordan iborat oldingi harakati tufayli Jinoyat kodeksi bilan qoʻriqlanadigan obyektlarga zarar yetkazilishi oqibatida unda nazarda tutilgan zararli, ijtimoiy xavfli oqibat keltirib chiqaradigan va bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni real imkoniyatga ega boʻla turib bajarmaslikda ifodalangan harakatsizlikda ularning oldini olmaydigan, harakat va harakatsizlik majmuyi".

Mazkur taʼriflar AQSh (Nyu-Jersi Jinoyat odil sudlov kodeksi 2-bob), Germaniya, Kanada va boshqa xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida [31] keltirilgan.

Sudyalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, izlanuvchi va olimlar oʻrtasida oʻtkazilgan soʻrovnomada "JK VIII boʻlimi "Atamalarning huquqiy maʼnosi"da harakat-

sizlikka berilgan ta'rifda huquqqa xiloflik, irodaviylik va murakkab xususiyatga egalik belgilari ifodalanishi, shuningdek, JKning mazkur bo'limini aralash harakatsizlik tushunchasi bilan to'ldirishga zarurat bormi?" degan savolga ishtirok etgan respondentlarning 84,3 foizi bunday belgilarni kiritish kerakligi; 10,9 foizi bunday belgilarni kiritish zarur emas, degan fikrni bildirgan. Ularning 8 foizi boshqacha javob bergan.

## REFERENCES

1. Feyerbax P.A. Ugolovnoye pravo [Criminal law]. St. Petersburg, Medical type, State Commerce Collegium, 1810, p. 24.

2. Polyachek F. Sostav prestupleniya po chexoslovatskomu ugolovnomu pravu [The corpus delicti according to Czechoslovak criminal law]. Moscow, 1960, pp. 110–111.

3. Matveyev G.K. Osnovaniya grazhdansko-pravovoy otvetstvennosti [Bases of civil liability]. Moscow, 1970, p. 26.

4. Mamedov A. Sootnosheniye i vzaimosvyaz' ob''yekta i ob''yektivnoy storony prestupleniya [Correlation and relationship between the object and the objective side of the crime]. *Criminal Law*, 1999, no. 2, p. 57.

5. Kudryavtsev V.N. Ob''yektivnaya storona prestupleniya [The objective side of the crime]. Moscow, 1960, p. 85.

Kudryavtsev V.N. Protivopravnoye bezdeystvie i prichinnaya svyaz [Illegal inaction and causal connection.] *Soviet State and Law*, 1967, no. 5, p. 32.

6. Ter-Akopov A.A Bezdeystviye kak forma prestupnogo povedeniya [Inaction as a form of criminal behavior]. Moscow, Yuridicheskaya literatura Publ., 1980, pp. 13, 29.

7. Ugolovnoye pravo Rossii [Criminal law of Russia]. General Part. Moscow, Wolters Kluwer Publ., 2005, p. 142.

8. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General Part. Tashkent, Nasaf Publ., 2010, p. 179.

9. Ochilov H. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General Part. Tashkent, Justice Publ., 2020, p. 68.

10. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General Part. Tashkent, TSUL Publ., 2021, p. 35.

11. Kurs ugolovnogo prava [Course of criminal law]. N.F. Kuznetsova, I.M. Tyazhkova (Eds.). Moscow, 1999, vol. 1, p. 241.

12. Ugolovnoye pravo [Criminal law]. General part. N.V. Petrashev (Ed.). Moscow, 1999, p. 158.

13. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Doctrine of crime. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, vol. 1. p. 162–163.

14. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General Part. Tashkent., Nasaf Publ., 2010, p. 179.

15. Fletcher G.P. Basic concepts of criminal law. Oxford University Press, USA, 1998, pp. 47–48.

16. Dzhekebayev U.S. Osnovnyye printsipy ugolovnogo prava Respubliki Kazakhstan (sravnitelnyy kommentariy k knige D. Fletchera i A.V. Naumova «Osnovnyye kontseptsii sovremennogo ugolovnogo prava») [Basic principles of criminal law of the Republic of Kazakhstan (comparative commentary to the book by G. Fletcher and A.V. Naumov "Basic concepts of modern criminal law"]. Almaty, Zheti Zhargy Publ., 2001, pp. 101–103.

17. Xaydarov Sh.J. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik: jinoyat–huquqiy va kriminologik jihatlari [Inadequate performance of one's duties related to the profession: criminal-legal and criminological aspects]. Tashkent, 2019, p. 65.

2024-YIL 2-SON
VOLUME 8
ISSUE 2 / 2024

18. Ugolovnoye pravo Rossii [Criminal law of Russia]. General part. I.Ya. Kozachenko, Z.A. Neznamov (Eds.). Moscow, Infra-M, 1998, p. 148.

19. Ugolovnoye pravo Rossiyskoy Federatsii [Criminal law of the Russian Federation]. General part. B.V. Zdravomyslov (Ed.). Moscow, Jurist Publ., 1996, p. 139.

20. Timeyko G.V. Problemy obshego ucheniya ob ob''yektivnoy storone prestupleniya [Problems of the general doctrine of the objective side of crime]. Moscow, 1986, p. 18.

21. Panov N.I. Sposob sovershеniya prestupleniya i ugolovnaya otvetstvennost [Method of committing a crime and criminal liability]. Kharkov, Vishcha shkola, Khark. Univ. Publ., 1982, p. 18.

22. Materials of the court archive of Surkhandarya region. 2022. Case no. 1–1905-2101/238.

23. Materials of the court archive of Tashkent city. 2023. Case no. 1–1002-2305/334.

24. Rustambaev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. General part. Tashkent, Justice Publ., 2021, p. 110.

25. Yakubov A.S. Pravovaya osnova ucheniya o prestupleniyakh: predposylka, realnost', perspektivy [Legal basis of the doctrine of crime: prerequisites, reality, prospects]. Tashkent, 1996, pp. 88–92.

26. Yakubov A.S. Teoriticheskiye problemy formirovaniya pravovoy osnovy ucheniya o prestupleniykh: predposylki, realnost', perspektivy [Theoretical problems of forming the legal basis for the doctrine of crimes: prerequisites, reality, prospects]. Tashkent, 1996, pp. 95–100.

27. Niyozova S.S. Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi [Victimological prevention of violent crimes against the person]. Tashkent, 2020, pp. 23, 31.

28. Abduqodirov Sh.Yo. Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari [Criminal-legal and criminological aspects of crimes in the field of economic activity]. Tashkent, 2018, pp. 20, 226, 253.

29. Fletcher G.P. Rethinking Criminal Law. Boston, Little, Brown, 1978. Oxford; New York, Oxford University Press, 2000. Basic concepts of criminal law, 1998, vol. 166, pp. 59–70.

30. Holmes O.W. The Common Law (1881 Publisher: London: Routledge, 2020). Paul H. Robinson, Should the Criminal Law abandon the Actus Reus – Mens Rea distinction? *Criminal Law: Action, Value and Structure*, vol. 54, pp. 187, 209.

31. 2018 New Jersey Revised Statutes Title 2C -- The New Jersey code of Criminal justice. Ch. 2. Sec. 2c:2-1. *NJ Rev Stat,* 2018, § 2c:2-1. Available at: https://law.justia.com/codes/new-jersey/2018/title-2c/chapter-2/section-2c-2-1 html (accessed 27.04.2024).

32. The Criminal Code of Canada. R.S.C., 1985, p. C-46. Available at: https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/c-46/page-1.html#h-115011 (accessed 27.04.2024).

33. The German Criminal Code (Strafgesetzbuch – StGB). Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html#p0097 (accessed 27.04.2024).


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X